

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| R.A.Mamajonov O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati | 545 |
| B.A.Pulatov Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari | 548 |
| K.I.Marayimova Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ... | 552 |
| N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirish usullari | 557 |
| D.I.Asqarova Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari | 561 |
| M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari | 569 |
| M.Q.Jabborova Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy sifatiga erishish omillari | 572 |

FALSAFA

| | |
|--|-----|
| A.A.A.Qambarov "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari | 579 |
| I.M.Arzimatova Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'rnini | 583 |
| D.E.Normatova Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati | 588 |
| I.A.Asatulloev Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari ma'naviy hayotining qiyosiy tahlili | 593 |
| T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov Korrupsiyaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limiy jihatlari | 597 |
| S.S.Evatov Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdagi o'rnini | 602 |
| I.Y.Toirov Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarni o'rganish muammolari | 606 |
| A.M.Rasulov Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili | 610 |
| A.A.Sayitxonov Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'rnini | 614 |
| F.A.Yuldashev Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests | 618 |
| S.P.Tojiboyev Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili | 625 |
| B.X.Mirzaraximov, B.T.Shokirov Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari | 631 |
| M.A.Abduxamidov Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlariga munosabatining tahlili | 635 |

SIYOSAT

| | |
|---|-----|
| J.A.Dadaboyeva Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari | 638 |
| A.A.G'aniyev Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati | 643 |

TARIX

| | |
|--|-----|
| B.A.Usmonov "Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir | 648 |
|--|-----|



UO'K: 930.1:001.8:316.32

**SIVILIZATSIYA MASALALARINING NAZARIY - METODOLOGIK JIHATLARINI
O'RGANISH MUAMMOLARI****ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ
ВОПРОСОВ ЦИВИЛИЗАЦИИ****PROBLEMS OF STUDYING THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF
CIVILIZATION ISSUES****Toirov Ilxom Yoriyevich** Farg'ona davlat universiteti falsafa kafedrası katta o'qituvchisi
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

Ushbu maqolada "sivilizatsiya" tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahlili, ilmiy ta'riflari, unga berilgan ilmiy ta'riflarning muhim tomonlarini aniqlash, metodologik jihatdan dolzarb ahamiyatga egaligi, sivilizatsiyaga doir konsepsiyalar, ijtimoiy hodisalar mohiyatini bilishga formatsion yondashuvlar, yangi ilmiy paradigma, sivilizatsiyali yondashuvlarning xilma-xilligi, jamiyatning statik va dinamik holatini ham vertikal, ham gorizontol o'rganish, ularni o'zaro qiyoslash maqsad qilingan.

Аннотация

В данной статье проводится социально-философский анализ понятия «цивилизация», научные определения, выявление важных аспектов придаваемых ему научных определений, методологическая актуальность, понятия, связанные с цивилизацией, формирующие подходы к пониманию природы социальных явлений, новая научная парадигма, разнообразие цивилизационных подходов, направлена на изучение статического и динамического состояния общества как по вертикали, так и по горизонтали, и сравнение их между собой.

Abstract

This article provides a socio-philosophical analysis of the concept of "civilization", scientific definitions, identification of important aspects of the scientific definitions attached to it, methodological relevance, concepts related to civilization, forming approaches to understanding the nature of social phenomena, a new scientific paradigm, a variety of civilizational approaches, aims to study the static and dynamic state of society both vertically and horizontally, and compare them with each other.

Kalit so'zlar: sivilizatsiya, jamiyat, dunyoqarash, tafakkur, yangi ilmiy qarashlar, paradigma, qadriyat, millat, halq, madaniyat, dialektika, mohiyat, qonuniyat.

Ключевые слова: цивилизация, общество, мировоззрение, мышление, новые научные взгляды, парадигма, ценности, нация, народ, культура, диалектика, сущность, легитимность.

Key words: civilization, society, worldview, thinking, new scientific views, paradigm, values, nation, people, culture, dialectics, essence, legitimacy.

KIRISH

Jahonda sivilizatsiya mohiyatini ilmiy asosda bilishga bo'lgan qiziqish ortib borayotgan va ayni vaqtda sivilizatsiyali taraqqiyotga butunlay zid bo'lgan diniy aqidaparastlik, soxta tariqatchilik, diniy ekstremizm va terrorizm Yer yuzidagi xalqlar va mamlakatlar tinchligi, osoyishtaligi va barqarorligiga jiddiy tahdid solayotgan bugungi tahlikali davrda ulug' ajdodlarimizning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini targ'ib etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, avvalo, yosh avlodimizni xalqimizning buyuk ma'naviy merosiga hurmat, ona yurtimizga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim va dolzarbdir[1]. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari bulgan The George Washington University, Centre of scientific investigation of Central Asia (AQSH), Peace Research Institute Frankfurt, Centre of Scientific investigation of Civil Society (Germaniya), Centre International investergate of Oxford university, School of Culture, religions and policity in Asia (Buyuk Britaniya), University of Wester Ontario (Kanada), Institute of Central Asia (Fransiya), Institute of International relation (Shvetsiya)da sivilizatsiyaning falsafiy mohiyatini tadqiq etishga

FALSAFA

bag'ishlangan yirik fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakatimiz o'zining boy tarixi, madaniyati va ma'naviy-intellektual salohiyati bilan jahon hamjamiyatiga qo'shilib borayotgan, bizning vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olayotgan, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga umumdavlat miqyosida katta e'tibor berilayotgan hozirgi sharoitda sivilizatsiya muammolarini ilmiy-falsafiy tadqiq etish dolzarb vazifaga aylandi. Shu sababli Sivilizatsiya mohiyatini bilishga konseptual yondashuv hozirgacha qizg'in munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan «madaniyat va sivilizatsiya», «madaniyat va tarixiy tiplar»[2] tushunchalarining o'zaro munosabatlarini bilish va «sivilizatsiya» tushunchasini falsafiy tushuncha sifatida ta'riflash muhim ahamiyatga ega. Maqolada jahon va mamlakatimiz olimlarining sivilizatsiya mohiyatini bilish yo'lida erishgan yutuqlari tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Sivilizatsiya tushunchasining genezisi, uning elementlari va shakllari haqida fikr yuritiladi hamda muhim nazariy xulosalar chiqariladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Sivilizatsiya muammolari G'arb olimlari: O. Shpengler, K. Yaspers, A. Toynbi tomonidan har tomonlama tadqiq etildi. Ular sivilizatsiya mohiyatini diniy-idealistik pozitsiyadan tahlil qilishga, sivilizatsiyaning amal qilish mexanizmini ochib berishga harakat qildilar, sivilizatsiya nazariyasi rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda sotsializm va kapitalizm o'rtasidagi g'oyaviy-mafkuraviy kurash avj olgan "sovuq urush" davrida sovet jamiyatshunoslari sivilizatsiya muammolarini tadqiq etishga, "sotsializm yangi tipdagi sivilizatsiya" ekanligini isbotlashga harakat qildilar. Rus tadqiqotchilari M.P.Mchedlov, E. S.Markaryan, L.I.Novikova[3] va boshqalar sivilizatsiya va formatsiyaning o'zaro munosabatini ochib berishga, lokal sivilizatsiyalar nazariyasiga tanqidiy yondashishga harakat qildilar. O'tgan asrning 80-yillarida rus jamiyatshunoslari sivilizatsiya muammosidan mafkuraviy maqsadlarda foydalanishga bag'ishlangan tadqiqotlar olib bordilar, joylarda mazkur muammoga bag'ishlangan ilmiy-nazariy konferensiyalar o'tkazildi. Jumladan, 1985 yil O'rta Osiyo respublikalari tarixida birinchi marta Farg'onada yosh olimlarning "Madaniyat – Sivilizatsiya - Inson" mavzusida mintaqaviy o'qishlari bo'lib o'tdi. XX asr o'rtalarida sivilizatsiya tushunchasi turlicha mafkuraviy pozitsiyadan talqin etila boshladi. Agar G'arb olimlari sivilizatsiya kapitalistik taraqqiyot maxsuli ekanligini ta'kidlaganlari holda G'arb davlatlarining Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi xalqlariga nisbatan buyuk sivilizatsiyalashtiruvchilik missiyasini zo'r berib targ'ib etgan bo'lsalar, sovet olimlari va faylasuflari sotsializm – yangi tipdagi sivilizatsiya ekanligini asoslashga, sivilizatsiya mohiyatini burjuacha tushunishni tanqid qilishga[4], shu munosabat bilan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya va sivilizatsiya tushunchalarining o'zaro munosabatini ochib berishga, sivilizatsiya formatsiyaning tarixiy bosqichi ekanligini isbotlashga zo'r berdilar. Bunday yondashuvning qator kamchiliklari mavjud edi: sovet tadqiqotchilari sivilizatsiya tushunchasiga "mohiyatning namoyon bo'lish shakllaridan biri" maqomini berish bilan uning mustaqilligini, nazariy ahamiyatini rad etar, ya'ni sivilizatsiya sotsial falsafaning asosiy tushunchalaridan biri ekanligini inkor qilar edilar.

XX asr nihoyasida O'zbekistonda, XXI asr boshlarida Rossiya, AQSH, Angliya, Iroq singari mamlakatlarda sodir etilgan terroristik aktlar, diniy ekstremizm, narkomaniya singari ofatlar jahon olimlari e'tiborini yana sivilizatsiya muammolarini o'rganishga jalb eta boshladi. Amerikalik taniqli faylasuf va sotsiolog Elvin Toffler jahon sivilizatsiyasining rivojlanish davrini uch bosqichga bo'ldi: Birinchi bosqichni agrar sivilizatsiya deb atadi. Ikkinchi bosqichni industrial sivilizatsiya deb atadi. Bu davr taxminan bug' mashinasi ixtiro etilgan va qo'llangan 1650-1750 yillarga to'g'ri keladi. Jahon sivilizatsiyasining uchinchi bosqichi XX asrning 50-yillaridan boshlandi. Bu bosqichda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, robotlashtirish, elektronika tatbiq etish uzluksiz davom etdi. E.Toffler[5] jahon sivilizatsiyasining uchinchi bosqichini axborot sivilizatsiyasi (informatsion jamiyat) deb atadi.

Rossiyalik tadqiqotchi V.Nechiporenkoning fikricha, XX asrning ikkinchi yarmida sivilizatsiya mohiyatini tushunishda uch xil yondashuv vujudga keldi: 1) sivilizatsiyani insoniyatning progressiv rivojlanish bosqichi yoki ideali sifatida tushunish; 2) sivilizatsiyaga noyob lokal-tarixiy, sotsial-madaniy xususiyatlari sifat jihatdan farqlanuvchi ijtimoiy hodisa sifatida qarash; 3) sivilizatsiya mohiyatini hozirgi zamon globalistikasi ta'sirida keng ma'noda tushunishga sabab bo'ldi[6]. Jahon sivilizatsiyasining birligini ta'kidlovchi sivilizatsion yondashuv hozirgi dunyoga sivilizatsiyalarning uchrashuvi o'zaro muloqoti sifatida qarar ekan, ijtimoiy hodisalar mohiyatini bilishga sivilizatsiyali va globallashtirish nuqtai nazaridan yondashish imkoniyati vujudga keladi. Shunday qilib, an'anaviy

"sivilizatsion yondashuv" globalistika nazariyasi bilan uyg'unlashar ekan, sivilizatsion jarayonlar deganda umumjahon sivilizatsiyasidagi global o'zgarishlar (yangicha jahoniy tartiblarning qaror topishi, global olamning vujudga kelishi) tushunishshi lozim. Globallashuv konsepsiyasi hozirgi zamon sotsiologiyasida global sivilizatsion jarayonlarni tahlil qilishning eng qulay vositasiga aylandi. Ko'pchilik tadqiqotchilar globallashuv haqida fikr yuritir ekanlar, bu jarayonning mohiyatini butun dunyoda jamiyat va iqtisodiyotni tashkil etishning qandaydir universal modelini ko'rmoqdalar[7].

Milliy mustaqillik tufayli har qanday "izm"lardan, biryoqlama siyosiy va mafkuraviy zug'umlardan holi bo'lgan ilmiy-falsafiy tafakkur oldida sivilizatsiyaning haqiqiy mohiyatini ilmiy asosda o'rganish, sivilizatsiyali taraqqiyotga xos muhim belgi va sifatlarni aniqlash, ijtimoiy tafakkurda sivilizatsiyali ong va qadriyatlarni shakllantirish vazifasi vujudga keldi. XX asr oxirida jahonda ro'y bergan muhim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sivilizatsiya muammosini ilg'or ilmiy paradigma asosida o'rganishning kuchayishiga turtki berdi. Ayniqsa, milliy davlatchiligimiz asoslarining qayta tiklanishi, ma'naviy qadriyatlarimizni xalqimiz o'rtasida keng targ'ib etish, ulug' ajdodlarimizning ilg'or an'alarini davom ettirish va sivilizatsiyali jamiyat barpo etishga bo'lgan intilishlar sivilizatsiya muammosini xolisona obyektiv o'rganishni dolzarb vazifaga aylantirdi.

Milliy mustaqillik sharoitida shakllangan yangicha siyosiy va falsafiy tafakkur tufayli jahonga mashhur g'arb olimlari: A. Toynbi, O. Shpengler, K.Yaspers, I.Kant, G.Gegel, K.Popper singari ulug' mutafakkirlarning ilmiy merosini chuqur o'rganish va holisona tadqiq etish imkoniyati vujudga keldi[8]. Respublikamizning taniqli faylasuflari: S. Shurmuhamedov, M. Xayrullayev, A. Jalolov, H. Po'latov, V. Rtveladze, A. Saidov, R. A. Ubaydullayeva, Q. Nazarov, Sh. O.Madayeva, G. G'. G'affarova, R. Nosirov, X.Aliqulov va boshqalarning tadqiqotlarida ijtimoiy hodisalar mohiyatini o'rganishga sivilizatsiyali yondashish metodologik prinsip sifatida ilgari surildi. Ayniqsa, S.Shurmuhamedov, A.Jalolov, A. Ochildiyev, A.Saidovlarning sivilizatsiya muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarida sivilizatsiya muammosini yangicha metodologiya asosida tadqiq etish dolzarb vazifa ekanligi alohida ta'kidlandi. G'arb olimlarining sivilizatsiya nazariyasini xolisona tadqiq etish sivilizatsiyaga oid ilmiy bilimlarni sistemalashtirish, falsafiy kategoriya sifatida sivilizatsiya mohiyatini ta'riflash milliy falsafamiz oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi. Shu jihatdan falsafiy metodlar tahlilida analiz va sintez, tizimli tahlil, dialektik, aloqadorlik, tarixiylik va mantiqiylik, sinergetik yondashuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Mamlakatimizda sivilizatsiya singari g'oyat murakkab va ko'pqirrali hodisani dissertatsiya darajasida birinchi marta tadqiq etilayotganini inobatga olsak, tadqiqotchining o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarning ko'lami va mashaqqati yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Olimlarning ta'riflaridan kelib chiqib, "sivilizatsiya" tushunchasining genezisini aniqlash, unga ilmiy ta'rif berish, uning dinamik hodisa sifatida muttasil ravishda o'zgarib va rivojlanib borishini asoslash maqsad qilindi. O'z navbatida din har qanday sivilizatsiyaning yadrosi ekanligi, milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash sivilizatsiyali taraqqiyotning zarur sharti ekanligini[9] ko'rsatish sivilizatsiya elementlari ayni bir vaqtda sivilizatsiya omillari ekanligini isbotlash Sharq va G'arb sivilizatsiyalarining o'zaro bog'liqligi va o'ziga xosligini ochib berish, sivilizatsiyaning xarakterli xususiyatlarini tavsiflash, tasniflash, hozirgi zamon sivilizatsiyasi taraqqiyotida fanning o'rni va rolini ochib berildi. Insoniyat sivilizatsiyasi, uning shakllanish va yoyilish qonuniyatlari; Sharq va G'arb sivilizatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlaridan iborat. O'zbekiston sivilizatsiyali taraqqiyotining ijtimoiy omillari va imkoniyatlarining o'zaro sintezini ta'minlash jarayonidan iborat. Olingan natija va muhokamalardan quyidagilarni maqolaning ilmiy yangiligi sifatida ko'rsatish mumkin:

- "sivilizatsiya" tushunchasiga ilmiy ta'rif berildi; uning genezisi milliy davlatchilikning shakllanishi bilan bog'liq ekanligi asoslandi;
- Sivilizatsiya elementlari tavsiflandi;
- Sivilizatsiyalarni tasnif qilish mezonlari aniqlandi. Sharq va G'arb sivilizatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi;
- Madaniyat va sivilizatsiyaning umumiy va o'ziga xos jihatlari, o'zaro bog'liqligi ko'rsatildi[10];
- O'zbekiston sivilizatsiyali taraqqiyotining muhim omillari va imkoniyatlari tavsiflandi;
- Sivilizatsiyalar hamkorligi va o'zaro ta'siri jahon sivilizatsiyasi rivojlanishining zarur sharti ekanligi asoslandi. Ushbu jarayonida erishilgan natijalar sivilizatsiya to'g'risidagi bilim, tushuncha va tasavvurlarni boyitadi, sivilizatsiyali ong va dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati sivilizatsiyalar tarixi, sivilizatsiyali taraqqiyotning

FALSAFA

falsafiy masalalari bo'yicha ijtimoiy-falsafiy, ilmiy yangiliklar sifatida muhim manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

XULOSA

«Sivilizatsiya» tushunchasi insoniyat ma'naviyati, intellektual taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq ravishda muttasil ravishda mazmunan boyib, takomillashib bordi, insoniyat o'z ma'naviy taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarilishi bilan sivilizatsiya mohiyatini yana ham to'laroq va chuqurroq anglay boshladi. «Madaniyat», «inson», «shaxs», «jamiyat» singari tushunchalarga birma'noli yagona ta'rif berib bo'lmagani singari sivilizatsiya tushunchasiga ham hamma davrlar uchun birday xizmat qiladigan yagona va eng to'g'ri ta'rif berib bo'lmaydi. Zero, hozirgacha sivilizatsiyaga berilgan ta'riflarda nisbiy haqiqat va abadiylikka da'vogarlik elementlarini uchratishimiz mumkin. Shunday bo'lishi ham tabiiydir. Chunki har bir olim sivilizatsiya mohiyatini ochishga intilar ekan, o'zi yashab turgan jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatidan, fan yutuqlaridan kelib chiqadi; jamiyatning sivilizatsiyali taraqqiyoti yo'lida paydo bo'lgan qiyinchilik va muammolarni aniqlashga, uni hal etish yo'llarini ko'rsatishga harakat qiladi[11]. Sivilizatsiya genezesi insonning o'z tabiiy cheklanganligini bartaraf etishi bilan bog'liqdir. Inson, bir tomondan, tashqi tabiatni o'ziga bo'ysundirib, uning ijtimoiy borliqqa, o'ziga ko'rsatadigan ta'sirini kamaytiradi. Ikkinchi tomondan, inson o'zining haqiqiy yaratuvchan mohiyatini namoyon qilish uchun o'z ichki tabiati ustidan, ya'ni hayvoniy intinklari ustidan hukmronlik qilishga intiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Эргашев Ш. Қадимги цивилизациялар Тошкент. Ўзбекистон 2016. Бет 56.
2. Джалалов А. Мир цивилизаций: слагаемые устойчивого развития// Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006, 3-сон. 77-б
3. Тойнби А. Постигение истории. М.: Прогресс, 1991. С.515-516.
4. Шермухамедов С., Очилдиев А. Маданият ва цивилизация: Қувасой, 1999. 4-б. Джалалов А. Мир цивилизаций: слагаемые устойчивого развития// Фалсафа ва ҳуқуқ, 3/2006
5. Мчедлов М. П. Социализм-становление нового типа цивилизации. М.: 1980. Маркарян Э. С. О концепции локальных цивилизаций. Ереван, 1962.; Новикова Л. И. Культура и цивилизация в историческом перспективе.
6. Мирзиёев Ш. М. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма тўққиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи. 2020 йил 1 сентябрь.
7. Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б.347-348.
8. Файнбург Э. И. Понятие цивилизации как стражение уровня и характера социального самосознания // Цивилизация как проблема исторического материализма. Часть 1 (социально-философские вопросы цивилизации) – М.: 1983. – С.15).
9. Тоффлер Э. Шок будущего.- М.: АСТ,2003; Тоффлер Э. Третья волна.- М.: Эксмо, 1999.
10. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб.- Т.:Ўзбекистон, 1997.
11. Очиллов Ж. А. Глобал техноген цивилизация ривожланиш жараёнининг синергетик таҳлили. Фалс. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Самарқанд, 2018. – Б.12
12. Гумилев А.Н. Конец и вновь начало. - М.: АСТ: Астрель, 2010. – С.71.